XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 8-yanvar VII-13-2-8-116-K/26 Sariosiyo tumani

Sariosiyo tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga hamda mol-mulklariga 2026-yil uchun soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-, 429 va 437-moddalariga asosan Sariosiyo tumanida 2026-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash va tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Sariosiyo tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 17-dekabrdagi 01-09652-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatga nisbatan koeffitsiyenti 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tumanning mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Sariosiyo tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Qultayev), tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i (Sh.Qosimov)ga:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv. m uchun mutloq miqdori tuman markazida va qishloq joylarda 1 390 000 (bir million uch yuz to‘qson ming) so‘m belgilanganligi minimal qiymatda bo‘lishini nazorat qilish;

yer solig‘ining amaldagi stavkalari yuridik shaxslar uchun 1 gektarga 49 010.0 ming. so‘m va jismoniy shaxslar uchun 1 kv. m ga 402 so‘m 53 tiyin etib belgilanganligini nazorat qilish;

belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

yuridik va jismoniy shaxslarning egaligidagi yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini hamda yuridik shaxslarning mavjud mol-mulklari uchun hisoblangan mol-mulk soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borilishini nazoratga olsin.

4. Tegishli mas’ullar tomonidan har chorak yakunida yuridik va jismoniy shaxslarning egaligidagi yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini hamda yuridik shaxslarning mavjud mol-mulklari uchun hisoblangan mol-mulk soliqlarining undirilishi yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borilsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Ergashov) va “Sariosiyo” gazetasi (A.Azizov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida televideniye, radio, rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Sariosiyo tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Asadov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **RAJABOV MUXAMMAD RUZIBADALOVICH**

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-13-2-8-116-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Sariosiyo tumanida 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solishda minimal qiymatga qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdori

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent
1.	Sariosiyo tumani	1,0

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-13-2-8-116-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Sariosiyo tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2026-yil uchun belgilangan yer solig‘ining bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsentlar

T.r	Mahalla nomi	2026-yil Yuridik va Jismoniy shaxslar uchun yer (noturar) solig‘i stavkasi		2026-yil Jismoniy shaxslar uchun yer (turar) solig‘i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun so‘mda)	Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.metr uchun so‘mda)
	Viloyat taklifi	**1.0**	**49 010 000.00**	**1.0**	**402.53**
1	Alisher Navoiy mahallasi	1,1	53 911 000,00	1,1	442,78
2	Aeroport mahallasi	1,1	53 911 000,00	1,1	442,78
3	Afrosiyob mahallasi	1,1	53 911 000,00	1,1	442,78
4	Anorzor mahallasi	1,1	53 911 000,00	1,1	442,78
5	Billur mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
6	Bog‘iobod mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
7	Bog‘iston mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
8	Bog‘i Samarqand mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
9	Bog‘ishamol mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
10	Bog‘ishirin mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
11	Boysunobod mahallasi	0,8	39 208 000,00	0,8	322,02
12	Bo‘yrapusht mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
13	Chilonzor mahallasi	0,8	39 208 000,00	0,8	322,02
14	Chosh mahallasi	0,8	39 208 000,00	0,8	322,02
15	Daragiston mahallasi	0,8	39 208 000,00	0,8	322,02
16	Diydor mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53

17	Do‘stlik mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
18	Ehtirom mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
19	Feruz mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
20	Galabutta mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
21	Gulobod mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
22	Jannatmakon mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
23	Karsh mahallasi	0,8	39 208 000,00	0,8	322,02
24	Kelajak sari mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
25	Konchilar mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
26	Lochin mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
27	Lutfkor mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
28	Mirzo Ulugbek mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
29	Ma’dankon mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
30	Maland mahallasi	0,8	39 208 000,00	0,8	322,02
31	Marjona mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
32	Mehr-shafqat mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
33	Niloba mahallasi	1,1	53 911 000,00	1,1	442,78
34	Nilu mahallasi	0,8	39 208 000,00	0,8	322,02
35	Niholzor mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
36	Nodirabegim mahallasi	1,1	53 911 000,00	1,1	442,78
37	Nurbuloq mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
38	Nurobod mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
39	Sa’diy Sheroziy mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
40	Sangardak mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
41	Sarijar mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
42	Sebzor mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
43	Shabnam mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
44	Sharq yulduzi mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04

45	Sharafobod mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
46	Shahriobod mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
47	Shirin mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
48	Shoqishloq mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
49	Shohjahon mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
50	Subhidam mahallasi	0,8	39 208 000,00	0,8	322,02
51	Terakzor mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
52	Tortuli mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
53	Turmushobod mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
54	Xalqobod mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
55	Hamkorlik mahallasi	1,0	49 010 000,00	1,0	402,53
56	Xonjiza mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
57	Hulkar mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
58	Xufar mahallasi	0,8	39 208 000,00	0,8	322,02
59	Xurshid mahallasi	0,9	44 109 000,00	0,9	362,28
60	Yangi hayot mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
61	Yoqutlibog‘ mahallasi	1,2	58 812 000,00	1,2	483,04
O‘rtacha tuman bo‘yicha		**1,0**	**48 768 967,20**	**1,0**	**400,55**